Agentlik tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida 2021 yil mobaynida sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish, tashkiliy hamda institutsional mexanizmlarni mustahkamlash, davlat budjeti mablag‘larining samarali sarf etilishini ta’minlash, davlat xizmatida halollik standartlarini keng joriy etish, davlat idoralarining ochiq va oshkora faoliyat yuritishini ta’minlash, halqaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirish yo‘nalishlarida bir qator ishlar amalga oshirildi.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha

O‘tgan vaqt davomida, Agentlik tashabbusi bilan 26 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalari ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirda ushbu hujjatlardan 8 tasi qabul qilingan. Ma’lumot uchun:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6247-son Farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6257-son Farmoni (mazkur farmon bilan 2021-2022 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi tasdiqlangan);

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5177-son Qaror;

4. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–729-son Qonun;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–34-son Qaror;

6. “O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi to‘g‘risida”gi Nizom (Milliy kengashning 2021 yil 19 avgustdagi 4-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan);

7. “O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Hududiy kengashlari to‘g‘risida”gi Nizom (Milliy kengashning 2021 yil 19 avgustdagi 4-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan);

8. “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risida”gi namunaviy nizom (2021 yil 8 sentyabrda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Ro‘yxat raqami № 3319).

2. Hududlar va sohalarda davlat budjetidan maqsadli foydalanish, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshirish yuzasidan o‘tkazilgan o‘rganishlar bo‘yicha

Agentlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘iga asosan “Korrupsiyasiz soha”, “Korrupsiyasiz hudud” loyihalari, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlar va sohalar kesimida 50 dan ortiq o‘rganishlar va tekshiruvlar o‘tkazildi. Sog‘liqni saqlash, oliy va o‘rta maxsus ta’lim, xalq ta’limi, ichki ishlar, kurilish sohalarida o‘tkazilgan o‘rganishlar shular jumlasidandir. Ushbu tadbirlar davomida aniqlangan korrupsiya holatlari

yuzasidan to‘plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilinib, Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan umumiy 49 ta jinoyat ishi va 24 ta ma’muriy ishlar qo‘zg‘atildi. Shundan Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosi buzilganligi bilan bog‘liq 23 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, ular bo‘yicha 142 mlrd so‘mdan ortiq moddiy zarar aniqlandi. Shuningdek, budjet buyurtmachilari tomonidan ob’ektlarni qurish va joriy ta’mirlash bo‘yicha “dxarid.uz” va “tender.mc.uz” maxsus axborot portalida joylashtirilgan e’lonlar joylarga chiqqan holda o‘rganilganda, jami 134 ta ob’ektda 85,5 mlrd so‘mlik joriy ta’mirlash va qurilish ishlari tanlov g‘oliblari aniqlanmasdan boshlab yuborilganligi yoki allaqachon tamomlanganligi ma’lum bo‘ldi. Sohalar kesimida tahlil qilinganda, Xalq ta’limi vazirligi tizimida 50,7 mlrd so‘mlik (61 ta), Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida 9,7 mlrd so‘mlik (25 ta), Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimida 1,8 mlrd so‘mlik (7 ta), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida 1,3 mlrd so‘mlik (4 ta), mahalliy hokimliklar va boshqa tashkilotlar tomonidan 22,0 mlrd so‘mlik (37 ta) ob’ektlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ushbu ob’ektlarni hududlar kesimida tahlil qilganda, Samarqandda 42,2 mlrd so‘mlik (10 ta), Andijonda 14,0 mlrd so‘mlik (45 ta), Qashqadaryoda 10,4 mlrd so‘mlik (32 ta), Namanganda 9,5 mlrd so‘mlik (27 ta), Jizzax viloyatida 3,7 mlrd so‘mlik (7 ta), Toshkent shahrida 3,7 mlrd so‘mlik (4 ta), Navoiyda 1,8 mlrd so‘mlik (5 ta), Buxoroda 332 mln so‘mlik (4 ta) ob’ektlar to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Bundan tashqari, davlat xaridlari sohasida o‘tkazilgan monitoringda Respublika bo‘yicha budjet buyurtmachilari tomonidan 458 ta tanlovda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi va “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunlarning talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi aniqlanib, korrupsiyaga oid huquqbuzarlarliklarning sabab hamda shart-sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan 446 ta taqdimnoma kiritildi va 141 mlrd so‘mlik mablag‘larning maqsadsiz sarflanishining oldi olindi. “Korrupsiyasiz soha” loyihasining ijrosini o‘rganish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi hamda hududiy bo‘linmalar va ularning mansabdor shaxslari faoliyati, xususan, tizimda budjet mablag‘laridan foydalanish va qonun hujjatlariga rioya etilishi holati bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilib, sohada korrupsiyaviy omil va xavflarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Qurilish sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishda “Shaffof qurilish” Milliy axborot tizimi ishlab chiqilib, respublikaning barcha hududlarida real vaqt rejimida to‘liq ishga tushirildi.

3. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini tashkil etish hamda davlat xizmatchilarining malakasini oshirish yo‘nalishida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandida, 2021 yil 1 oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilangan. Ushbu vazifa ijrosi to‘g‘risida BMT Taraqqiyot Dasturi ekspertlari bilan hamkorlikda ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiq, ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etish uchun 10 ta ichki idoraviy hujjatlar namunalari ishlab chiqilib, barcha davlat tashkilotlariga yuborildi. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (“komplayens-nazorat”) tizimini joriy etishga amaliy ko‘maklashish maqsadida, 2021 yilning 24-25 noyabr kunlari Davlat boshqaruvi akademiyasida ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarni amaliyotga tatbiq etishga doir ko‘rgazmali taqdimotlar o‘tkazildi. Unda 145 ta davlat tashkilotlarining ichki nazorat tuzilmasiga mas’ul bo‘lgan 215 nafar xodimlari ishtirok etdi. Shuningdek, 2021 yilning 26 noyabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklarining ichki nazorat tuzilmasiga mas’ul bo‘lgan xodimlar uchun onlayn tarzda o‘quv seminari o‘tkazildi. Xususan, Agentlik tomonidan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimini joriy etish bo‘yicha maxsus Qo‘llanma

ishlab chiqilib, davlat organlari va tashkilotlariga tarqatildi. Bundan tashqari, davlat organlari va tashkilotlarida tashkil etilayotgan ichki nazorat tuzilmalari rahbarlarini tayinlash Agentlik bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib, Agentlik xodimlari ishtirokida 25 ta vazirlik va idoralarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari lavozimiga nomzodlarni tanlash bo‘yicha ochiq tanlovlar o‘tkazildi. O‘z o‘rnida, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etishga mas’ul bo‘lgan kadrlarni o‘qitish va malakasini oshirish tizimi joriy etilib, dastlabki bosqichda vazirlik va idoralarning 299 nafar xodimlari Bosh prokuratura Akademiyasining qisqa muddatli onlayn kursida o‘qitilishi ta’minlandi.

4. Korrupsiyaga oid jinoyatchilik tahlili hamda yetkazilgan moddiy zararlarning undirilishi borasida qilingan ishlar

Tahlillarga ko‘ra, 2021 yilning o‘tgan 12 oyi mobaynida 6 294 nafar shaxslar tomonidan 7 953 ta korrupsion holatlar bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilgan. Shundan, davlat organlari va tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq holda 3 050 nafar shaxslar tomonidan 4 186 ta korrupsion holatlar bilan bog‘liq jinoyatlar hisobga olingan. **5. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta’minlash sohasidagi ishlar** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi PF–6247-son Farmoniga muvofiq, Agentlikka davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar yuklatildi. Agentlik tomonidan vazirlik va idoralarning ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiyatlarning bajarilishi o‘rganilib, muntazam monitoring qilib borilmoqda. Ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarning belgilangan tartibda ochiqlanishini ta’minlamagan 11 ta viloyat, Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish haqida rasman ogohlantirildi. 2021 yilning oktabr oyida vazirlik va idoralar kesimida o‘tkazilgan monitoring natijalari bo‘yicha 230 ta davlat idoralarining 121 tasi xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z rasmiy veb-saytiga joylashtirmaganligi aniqlandi. Shu kabi, Respublikadagi 119 ta davlat organi va tashkiloti o‘z tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko‘chmas mulklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Ochiq ma’lumotlar portaliga o‘z vaqtida joylashtirilishini ta’minlamagan bo‘lsa, 48 tasi Portalda shaxsiy kabinet ham ochmaganligi ma’lum bo‘ldi. Bu kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘yib kelayotgan vazirlik va idoralar mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirish maqsadida Agentlik tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilovchi qonun loyihasi ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritildi. Shuningdek Agentlik tomonidan davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha Metodika loyihasi ishlab chiqilib, umumiy 42 ta baholash mezoni qamrab olingan 7 ta indikator asosida baholanishi belgilanmoqda.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish yo‘nalishi bo‘yicha

Agentlikka 2021 yilda jami 4 901 ta (493 tasi dublikat) murojaat kelib tushgan bo‘lib, shundan 4 888 tasi ko‘rib chiqilishi ta’minlangan. 107 ta murojaat Agentlik rahbariyati tomonidan tashkil etilgan shaxsiy va sayyor qabullarda kelib tushdi. Kelib tushgan murojaatlarning 245 tasi ijobiy hal etilgan, 1163 ta murojaatga huquqiy maslahat va tushuntirishlar berish orqali qanoatlantirilgan, 2 ta tashakkurnoma, 2 ta murojaat fuqaroning arizasiga asosan ko‘rmasdan qoldirilgan, 117 ta murojaat anonim deb topilgan, 43 ta murojaat ma’lumot uchun qabul qilingan, 158 ta takroriy murojaat ko‘rib chiqilishi belgilangan tartibda tugatilgan, 3158 ta murojaat taalluqliligi bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga yo‘naltirilgan. Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qonunbuzilish holatlari yuzasidan 53 ta taqdimnoma, 9 ta ogohlantirish hamda 58 ta so‘rovnomalar kiritildi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan eng ko‘p ta’lim, sud, qurilish sohasi va huquqni

muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan bog‘liq masalalar yuzasidan murojaat qilingan. O‘rganishlar natijasida, qonun hujjatlariga zid ravishda chiqarilgan 32 ta qarorlar bekor qilindi, taqdim etilgan hujjatlarga asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan 11 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi, qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan 24 ta ma’muriy javobgarlik hamda 8 ta intizomiy javobgarlik choralari qo‘llanildi. O‘tgan vaqt davomida, Agentlik 11 ta vazirlik, idora va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi memorandumlarni imzoladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Toshkent davlat yuridik universiteti va “O‘zbekiston sanoat-qurilish banki“ aksiyadorlik tijorat banki kabi tashkilotlar shular jumlasidandir.

7. Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha

Bugungi kunda Agentlik va xalqaro hamkorlar o‘rtasida yaqin aloqalar yo‘lga qo‘yilmoqda, jumladan 20 dan ortiq xalqaro tashkilotlar, xususan BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, BMT Taraqqiyot Dasturi, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Shu bilan birga, bir qator xorijiy davlatlar, jumladan Fransiya, Latviya, Sloveniya, Germaniya, Avstriya, Malayziya, Qozog‘iston, Tojikiston, Ozarbayjon, Ukraina, Moldova kabi davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatli organlari bilan yaqin hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda. 2021 yil davomida xalqaro hamkorlikka oid 10 ta hujjatlar (memorandum, hamkorlik dasturlari) imzolandi. Bundan tashqari, Agentlik tomonidan 2021 yil davomida xalqaro tashkilotlar bilan 90 dan ortiq uchrashuvlar va 50 dan ortiq xalqaro darajadagi tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari rahbarlari va Ombudsmanlarining 4-yig‘ilishi Toshkent shahrida tashkil etildi. Tadbirda IHTga a’zo va 10 ta davlat vakillari ishtirok etdi. Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan “Aksilkorrupsiya haftaligi” tashkil etildi. Haftalik doirasida 21 ta yirik tadbirlar tashkil etilib, ularga vazirlik va idoralar, NNT, OAVlarning mingdan ortiq vakillari va yoshlar jalb etildi. “Aksilkorrupsiya haftaligi” doirasida 2021 yilning 3 dekabr kuni Toshkent shahrida birinchi marta keng qamrovli “Ochiqlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Toshkent forumi” o‘tkazildi. Forumda 8 davlat va 13 ta xalqaro tashkilotdan hamda davlat tashkilotlaridan 200 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston o‘rni yuqorilab bormoqda (“Transparency International” – 153 o‘rindan 146 o‘ringa, “World Justice Project” tashkilotining “Huquq ustuvorligi” indeksida 95 – 92, Jahon banki “Korrupsiyani nazorat qilish” indeksida 183 – 179).

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va Hududiy kengashlar faoliyatini samarali tashkil etish hamda uslubiy qo‘llab-quvvatlash

2021 yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining 4 ta majlisi tashkil etildi. Ushbu yig‘ilishlarda Milliy kengash va Hududiy kengashlarning huquqiy asoslari yaratildi. Korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ishlar holati yuzasidan 13 ta vazirlik va idora rahbarlari hamda 3 ta viloyat hokimlarining hisobot (axborot)lari eshitildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartlarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishni davom ettirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi va ijroga qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tashkil etildi hamda Agentlik rahbariyati, Milliy kengash a’zolari ishtirokida ta’sis yig‘ilishlari o‘tkazildi. Hududiy kengashlar faoliyatini muntazam baholab borish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlarining reyting baholash metodikasi va mezonlari ishlab chiqildi hamda Milliy Kengash tomonidan tasdiqlandi. Hozirda Agentlik

tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari hamda qarorlari, davlat rahbari boshchiligida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan yo‘nalishda belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.